
Mehnatdan kelsa boylik...

* Bugun yer egalarining dunyoqarashi o'zgarmoqda. Mehnat qilishda manfaatdor bo'lishmoqda. Yeng muhimi tomorqasidan unumli foylanmoqda. Ko'pchilik yaxshigina daromad topmoqda.

Ayniqsa xonadon a'zolari, xotin-qizlar bandligi ta'minlanmoqda. Keyingi vaqtlarda dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalariga ajratilgan maydonlardan samarali foydalanish, ularning huquqlari va qonuniy mafaatlari himoya qilish, qishloq aholisini bandligi va turmush darajasini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Qishloq joyida tomorqadan unumli foydalanib, har qarich ekin yerini bo'sh qoldirmay, halol-pokiza mehnati orqasidan mo'may foyda orttirayotgan xo'jaliklar safi kengaymoqda.

Tumanimizning chekka va Eksklav hududda joylashgan Cho'ng'ara MFYda yashovchi fuqaro Obidjon Mamadiyev o'zi yashayotgan xonadonda 11,5 sotix yer maydoniga issiqxona yaratdi va 5000 dona bodiring ko'chatlari ekib parvarishlamoqda.

O'zining guruchlari bilan butun Respublikamizda nom qozongan cho'ng'araliklar endilikda tomorqachilikda ham mo'may daromad topish hadisini olishmoqda. Xususan, Obidjon aka o'z issiqxonasidan bir yilda uch marta hosil olmoqda va tomorqachilik borasida ko'pga ibrat bo'lmoqda.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2024-03-11 08:18:23